



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 03 | pp. 423-427 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) O'TISH BOSQICHLARI VA BARQAROR RIVOJLANISHI



Urakova Maqsad Hakimovna
Buxoro davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari (MHXS) o'tish jarayonini va uning mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tahlil qiladi. MHXSga o'tishning asosiy bosqichlari, duch keladigan muammolar va ularning potensial yechimlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu o'tish jarayonining mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'siri va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari muhokama qilinadi. Maqola, O'zbekistonda MHXSga o'tish jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan strategik yondashuvlar va chora-tadbirlarni ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari (MHXS), barqaror rivojlanish, iqtisodiyot, moliyaviy hisobot, global integratsiya.

Abstract: This article analyzes the transition process to International Financial Reporting Standards (IFRS) in Uzbekistan and its potential impact on the country's sustainable economic development. It examines the main stages of the transition to IFRS, the challenges encountered, and potential solutions. Additionally, the positive impact of this transition process on the country's economy and future development prospects are discussed. The article emphasizes the strategic approaches and measures necessary for the successful implementation of the IFRS transition process in Uzbekistan.

Keywords: International Financial Reporting Standards (IFRS), sustainable development, economy, financial reporting, global integration.

Аннотация: Данная статья анализирует процесс перехода на Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО) в Узбекистане и его потенциальное влияние на устойчивое экономическое развитие страны. Рассматриваются основные этапы перехода на МСФО, сталкиваемые проблемы и потенциальные решения. Кроме того, обсуждается положительное влияние этого процесса перехода на экономику страны и перспективы будущего развития. Статья подчеркивает стратегические подходы и меры, необходимые для успешной реализации процесса перехода на МСФО в Узбекистане.

Ключевые слова: Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), устойчивое развитие, экономика, финансовая отчетность, глобальная интеграция.

Kirish

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xalqaro moliyaviy standartlarga moslashish muhim strategik vazifaga aylanmoqda. Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari (MHXS)ga o'tish jarayoni, mamlakatning moliyaviy tizimini xalqaro talablarga moslashtirish orqali, uning iqtisodiy barqarorligini va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Bu jarayon nafaqat moliyaviy hisobotlarning shaffofligini va ishonchlilagini ta'minlaydi, balki xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro savdo aloqalarini kengaytirish va mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish imkonini beradi.

O'zbekistonning MHXSga o'tishi, mamlakatning global iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvini tezlashtirish va milliy korxonalar uchun yangi imkoniyatlar yaratish maqsadida amalga oshirilmoqda. Bu o'tish jarayoni, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash orqali, mamlakat iqtisodiyotining ochiqligini va hisobdorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu jarayon korxonalar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun moliyaviy ma'lumotlarning ishonchlilagini va solishtiriluvchanligini ta'minlaydi, bu esa qaror qabul qilish jarayonini yaxshilaydi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Biroq, MHXSga o'tishi jarayoni oson kechmaydi va bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Bu muammolar orasida moliyaviy hisobot tuzish bo'yicha mutaxassislar va buxgalterlar malakasining yetarlishmasligi, moliyaviy va texnik resurslarning cheklanganligi, shuningdek, korxonalar va tashkilotlar o'rtasida MHXS ning qabul qilinish darajasining turlicha bo'lishi kabi omillar mavjud. Shu sababli, mamlakatning MHXSga muvaffaqiyatli o'tishi uchun zarur bo'lgan tayyorgarlik ishlari, o'quv dasturlari va moliyaviy hamda texnik ko'maklashuv choralari kabi bir qator tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekistonda MHXSga o'tishning asosiy bosqichlarini, bu jarayonning mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tahlil qilish va bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar va yechimlarni ko'rib chiqishdan iboratdir.

Adabiyotlar Sharhi

Bugungi kunda barcha mamlakatlar jahon maydoniga qadam qo'yishga hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga xarakat qilmoqda. Shu munosabat bilan 150 dan ortiq davlatlar hozirda MHXS dan o'z moliyaviy holati haqida aniqroq ma'lumot taqdim etish uchun foydalanishmoqda. Iqtisodchi olimlar A.A.Karimov, M.Rahimov, I.Qo'ziyevlar (2020) MHXS ga o'tishning istiqbollari [1], A.Z.Avloqulov (2020) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarni yuritish to'g'risida izlanishlar olib borishgan [2]. Iqtisodiyot fanlari doktori S.N.Tashnazarov (2019) doktorlik disertasiyasida moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish, va shu asosida moliyaviy hisobotning dunyo miqyosida garmonizatsiyasiga erishish, ilg'or tajribalardan milliy darajada samarali foydalanish zarurligi to'g'risida chuqur o'rganish va tahlillar olib brogan [3].

O'zbekistonda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tish jarayonini va uning barqaror rivojlanishga ta'sirini chuqurroq tushunish uchun, turli mamlakatlardagi MHXS qabul qilish tajribalari va ularning iqtisodiyotga ta'siri haqida so'nggi tadqiqotlar ko'rib chiqildi.

Jessika X.Yang, Nada Kakabadze va Dmitro Lazovskiylar (2013) moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining asosiy maqsadi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarini jalb qilishdir degan xulosaga kelishgan. [4]

Bansal, Prusty, Tanna va Denis (2010) Hindistonda bank sektori uchun MHXS ga moslashuv jarayonini tahlil qilishadi. Ular RBI (Hindiston Markaziy Banki) ko'rsatmalarining MHXS prinsiplari bilan qanday muvofiqlashtirilishi mumkinligini ko'rsatib berishadi va muvaffaqiyatlari o'tish uchun MHXS ning Hindiston Markaziy Banki tomonidan qabul qilinishining muhimligini ta'kidlashadi. Bu tadqiqot, MHXS ni qabul qilish jarayonida moliyaviy institutlarning duch keladigan asosiy qiyinchiliklarni va aktivlarni baholashdagi o'zgarishlarni ko'rib chiqadi [5].

Tahlil va Natijalar

O'zbekistonda MHXS o'tish jarayonida duch keladigan muammolar va ularning potensial yechimlari quyidagi jadvallar orqali ko'rib chiqiladi.

Jadval 1. MHXSga O'tish Jarayonidagi Asosiy Muammolar

Muammo	Muammo tavsifi
Bilim va Malaka Yetishmasligi	Moliyaviy hisobot tuzish bo'yicha mutaxassislar va buxgalterlar MHXS talablariga mos keladigan darajada bilim va malakaga ega emas.
Moliyaviy Resurslar Cheklanganligi	MHXS ni joriy etish uchun zarur bo'lgan texnologik va moliyaviy resurslarning yetishmasligi.
Huquqiy va Regulyativ Bazaning Noaniqligi	MHXS ni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan huquqiy va regulyativ bazaning noaniqligi yoki eskirganligi.

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Jadvalda ko'rsatilgan muammolar, O'zbekistonda MHXS ga o'tish jarayonining samaradorligini pasaytirishi mumkin. Bilim va malaka yetishmasligi muammosini hal etish uchun moliyaviy hisobot tuzish bo'yicha mutaxassislar va buxgalterlarga qaratilgan o'quv kurslari va seminarlar tashkil etish zarur. Shuningdek, MHXS ni joriy etish uchun zarur bo'lgan moliyaviy va texnologik resurslarning ta'minlash maqsadida davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish kerak. Huquqiy va regulyativ bazani yangilash va MHXS talablariga moslashtirish orqali, bu jarayonni yanada samarali va oson amalga oshirish mumkin.

Jadval 2. MHXS ga O'tish Jarayonidagi Potensial Yechimlar

Yechim	Tavsifi
O'quv Dasturlarini Kengaytirish	Moliyaviy hisobot tuzish bo'yicha mutaxassislar va buxgalterlarning MHXS bo'yicha o'qitish va malakasini oshirish.
Moliyaviy va Texnologik Resurslarning Ta'minlash	MHXS ni samarali joriy etish uchun zarur bo'lgan moliyaviy va texnologik resurslarning ta'minlash.
Huquqiy va Regulyativ Bazani Yangilash	MHXS talablariga mos keladigan huquqiy va regulyativ bazani ishlab chiqish va yangilash.

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Jadvalda keltirilgan yechimlar, O'zbekistonda MHXSga o'tish jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan. O'quv dasturlarini kengaytirish orqali moliyaviy hisobot tuzish bo'yicha mutaxassislar va buxgalterlarning bilim va malakasini oshirish mumkin. Moliyaviy va texnologik resurslarni ta'minlash, MHXS ni samarali joriy etish uchun zarur bo'lgan asosiy omillardan biridir. Huquqiy va reguliyativ bazani yangilash esa, MHXS talablariga to'liq mos keladigan moliyaviy hisobot tuzish jarayonini ta'minlaydi. Ushbu yechimlar, O'zbekistonda MHXSga o'tish jarayonini yanada samarali va oson amalga oshirishga yordam beradi.

Xulosa

O'zbekistonda Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari (MHXS)ga o'tish jarayoni mamlakatning iqtisodiy barqarorligini oshirish, xalqaro moliyaviy hamjamiyat bilan integratsiyalashuvni tezlashtirish va global bozorlarda raqobatbardoshligini yuksaltirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayon, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchlilagini ta'minlash orqali, xorijiy investorlarni jalb qilish, xalqaro savdo aloqalarini kengaytirish va mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar shuni ko'rsatadiki, MHXSga o'tish jarayonida duch keladigan muammolar, jumladan bilim va malaka yetishmasligi, moliyaviy va texnologik resurslarning cheklanganligi hamda huquqiy va reguliyativ bazaning noaniqligi kabi to'siqlar mavjud. Biroq, ushbu muammolarni hal etish uchun o'quv dasturlarini kengaytirish, moliyaviy va texnologik resurslarni ta'minlash hamda huquqiy va reguliyativ bazani yangilash kabi potensial yechimlar taklif etilmoqda.

O'zbekistonning MHXSga muvaffaqiyatli o'tishi, mamlakatning xalqaro moliyaviy hamjamiyatda ishonchlilagini oshirish, iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash va kelajakda yanada yuqori darajadagi iqtisodiy taraqqiyotga erishish uchun zarurdir. Bu jarayonning muvaffaqiyati, davlat, xususiy sektor va moliyaviy hisobot tuzish bo'yicha mutaxassislar o'rtaсидаги samarali hamkorlikka, shuningdek, mamlakatning global iqtisodiy tizimga integratsiyalashuv jarayoniga qo'shilishga tayyorligiga bog'liq.

Shu sababli, O'zbekistonda MHXSga o'tish jarayonini qo'llab-quvvatlash va uni yanada samarali amalga oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlarni ko'rish, mamlakatning iqtisodiy kelajagini belgilovchi muhim qadam hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat moliyaviy hisobotlarning sifatini yaxshilaydi, balki O'zbekistonning xalqaro moliyaviy bozorlardagi mavqeini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Karimov, I. Qo'ziyev, M. Rahimov. Molivaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish: muammo va istiqbol "Xalqaro ilmiy moliya va hisob" jurnali. № 4, avgust, 2020 yil 3-bet.
2. Avloqulov A.Z. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy natijalar to'g'risidagi axborotlarni aks ettirish xususiyatlari. Raqamli iqtisodiyotga o'tish davrida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. T.:2020. 243-bet.

3. S.N.Tashnazarov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) avtoreferati. T.: 2019. 74-bet.

4. Jessika Hong Yang, Nada Kakabadze, Dmitro Lozovsky. International financial reporting standards (IFRS) as a change agent in Ukraine. Journal of Governance and Regulation. Volume 2, Issue 3, 2013, Continued – 1.

5. Bansal, A., Prusty, R., Tanna, J. J., & Denis, L. (2010). Convergence to IFRS - Issues for Banking Sector.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

